

BUGUNGI KUNDA YOSHLAR TARBIYASIDA OMMAVIY MADANIYATNING AHAMIYATI

Rahmonova Sevara Abdusattor qizi

SAMDU Kattaqo`rg`on filiali Ijtimoiy ish yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya; Ushbu maqolada hozirgi zamon yoshlar tarbiyasida ommaviy madaniyatning o`rni, ommaviy madaniyat. zamonamizni qay darajada, o`zgartirib yuborayotganligi va uning natijasida asrlardan asrlarga ,zamondan zamonga o`tib kelayotgan milliy tarbiyamizning ahvoli ,ommaviy madaniyat ta'sirida Yevropa davlatlarining hayoti va bizning hayotimiz qay darajada kelib qolganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, ommaviy madaniyat, tarbiya, ommaviy axborot.

Bugungi XXI asr axborotlarning oqib kelishi avj olgan, texnologiyalar insonning aqli bovar qilmas darajada nihoyatda rivojlangan ,hattoki insonning oyog'i koinotgacha borib yetib, hozirgi kunda "Falonchi inson Mars sayyorasiga chiqdi", desa, odamzot hayron qolmaydigan va texnologiyalardan ortda qolgan odamni hayot shafqatsizlarcha chetga surib qo'yadigan zamonda yashar ekanmiz ,ana o'sha bugungi zamonamizda yoshlar tarbiyasida ommaviy madaniyat judakatta rol o'ynashini bilishimiz biz uchun foydadan holi bo'lmaydi. {1}

Zero, ommaviy madaniyat butun insoniyatning onggi-shuurigashu qadar chuqur ildiz otib bormoqdaki, bu madaniyatni qabul qilgan inson Ommaviy madaniyatni emas, balki, ommaviy madaniyat uni qabul qilgan insonni boshqarayotganligi afsuski, achchiq haqiqat. Yurtimizga kirib kelayotgan turli madaniyat oqimi natijasida nafaqat yangiliklardan xabardor bo'lyapmiz, balki, ularda yashiringan mentalitetimiz, qadriyatimiz urf-odatlarimizga zid g'oyalarga duch kelayotganligimiz ham bor gap albatta. Oqibatda katta xafv bilan ommaviy madaniyat bizning yuksak san'atimizga, qadriyat, urf-odatlarimizga ta'sir ko'rsatyapti. {2}

Aynan globallashtirish jarayonlari esa bu ommaviy madaniyatni jadallashtiryapti. Oqibatda esa, bu soxta niqob ortida turgan ommaviy madaniyat juda ko'p ko'ngilsizlik, noxushlikni ,ma'naviy buzulishni olib kelib, bir necha asrlardan beri rivojlanib sayqal topib kelayotgan xalqlarni xonavayron qilib ma'naviy jihatdan buzmoqda.

Biz ommaviy madaniyat haqida batafsil gapirishimiz uchun avvalo madaniyat o'zi nimaligini ,ommaviy madaniyat deganda nimalarni tushunishimizni bir ko'zdan kechirib o'tsak, foydadan holi bolmaydi albatta. "Ommaviy madaniyat" iborasining keng tarqalib boshlashi XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. {3} Ommaviy madaniyat an'anaviy madaniyatning ma'lum yo'nalishi sifatida emas, balki, hayot taqozo etgandagina yuz bera oladi. O'sha davrlarda Ommaviy

Axborot Vositalari (radio, kino, televideniye, ko'p nusxali gazetalar, suratli jurnallar) tarqalishi va ularning keskin rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Hozirgi kunda G'arb dunyosida erkinlikni niqob qilibolgan ayrim kimsalar nafaqat bizning milliy an'analarimiz balki, barcha xalqlar uchun qadrlil bo'lgan insoniylik aqidalariga to'g'ri kelmaydigan turli buzg'unchiliklarni ommaviy axborot vositalari orqali ochiqdan ochiq targ'ib etayotganini ko'rib turibmiz. {4} Natijada bugun odamlarni, qilish masalasi davrimizning xususan, yoshlarni buzgunchi illatlar tasiridan himoya dolzarb muommosiga aylangan. Afsuski, bugun jamiyatimizda bazan bu tasirlar girdobiga tushib qolib, oz hayotini izdan chiqargan, jaholat, buzgunchiliklar tuzogiga tushib qolgan kimsalarning paydo bolayotgani sir emas. Biz ommaviy madaniyatni qachon paydo bo'lganligini bildik. Ommaviy madaniyatning vazifasi bu insonda intim(dilkash)sevgi, modaga bo'lgan muhabbatini va unga bo'lgan qiziqishini orttiradi. {5}

Ommaviy madaniyatni bildik, xo'sh madaniyatni o'zi nima? Madaniyat - inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmui demak. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinemotografiya faoliyatlarida namoyon bo'lishini bilamiz. Endi astronomiya fanida ham madaniyat atamasi mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish, hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Biz bilamizki, tanganing ikki tomoni bo'lganidek, madaniyatning ham ijobiy tomonlari mavjud. Bu madaniyatga o'z hissasini qo'shgan, madaniyatimizni ijobiy tomonga shakllantirgan insonlardan bular jadidchilardir.

Munavvarqori Abdurashidxonov. Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va yana ko'pgina jadidchilar o'zlarining ma'rifatparvarlik ishlari bilan madaniyatning rivojiga o'z hissasini qo'shdilar. Jadidchilar gazetalar, jurnallar chiqardilar, kutubxona, teatr ochdilar. Ma'rifatparvarlikning va xalq rivojlanishi uchun ommaviy tarzda madaniyatimiz uchun jonini fido qildilar. Pedagogik adabiyotlar tahlilidan ma'lumki, ommaviy madaniyat haqida, undan saqlanish haqida buyuk insonlar o'z fikrlarini bayon etishgan. Masalan, rus olimasi, buyuk ruslarning professori hisoblangan N. Yelizarova bunday ta'rif beradi: "madaniyat tushunchasi intuitiv jihatdan shaffof bo'lib tuyuladigan tushunchalar tarkibiga kiradi. {5} Haqiqatdan ham olimimiz Yelizarovning fikrlariga qo'shilmasdan ilojimiz yo'q. Chunki bugungi hayot shuni taqozo etmoqda. Olimimiz A. Ibrohimov shunday deb o'tadilar: "Bugun dunyoda OAV va ommaviy madaniyatning imkoniyatlaridan ko'plab kuchlar oz manfaatlari yo'lida foydalanmoqdaki, natijada zo'ravonlikka, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan ma'naviy va axloqiy xususiyatlarga asoslangan "ommaviy madaniyat" namunalarini targ'ib qilish vositasida ma'naviy qadriyatlarning devalvatsiyasi, kishilar, ayniqsa yoshlar ma'naviy, axloqiy va ijodiy imkoniyatlarining pasayib

ketishi xavfi yuzaga kelmoqda. {2} Xususan "ommaviy madaniyat"dan saqlanishni oladigan bo'lsak, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarlarida "ommaviy madaniyat"ning zararli xatarlaridan ogohlantirib, jumladan, shunday deydilar: "Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holat bugungi taraqqiyotga, inson hayotl, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo -qazodek taralib borayotgan bunday xurujga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda" (2-Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.81-bet). Mening talqinimcha ommaviy madaniyat bu-bizning qayerda yashayotganligimizni va tarixiy, an'anaviy urf-odatlarimizni qisman chetga surishdir! Bugun yoshlar manaviyati va madaniyati bilan bogliq muommolardan biri kiyinish madaniyati va unda garb madaniyatiga taqlid, ergashish masalasi dolzarb mavzu bolib turibdi. Milliy talim tarbiya olgan, manaviyatida milliy madaniyatimizga hurmat va etiqod shakllangan, kiyinishda ham oz milliy qiyofasini yoqotmagan yoshlarimiz kop, albatta. Lekin bazan kochada, jamoat joylarida ochiq sochiq kiyinib yurgan yoshlarimizni uchratish mumkin. Bu uning uchun moda, zamonaviylik yoki ochiq aytadigan bolsak, bugun ommaviy madaniyat deb atalgan tushuncha g'arb madaniyatiga taqliddur. {6} Zamonaviy yashash yaxshi, dunyo taraqqiyotidan orqada qolish kerakmas, ammo biz kim, qaysi millat vakili ekanligimizni unutmasligimiz kerak. Insonning tashqi qiyofasi ham uning qaysi millatga tegishli ekanligi va qanday manaviyat egasi ekanligini korsatib turuvchi belgilardan hisoblanadi. Bugungi yoshlarimiz esa juda qiziquvchan, yangilikka och. Ular har bir voqea hodisani etiborsiz qoldirmaydilar. Ayniqsa, dunyoda paydo bolayotgan modalar hamisha ularning diqqat markazida. Tog'risi, bazi yoshlarimiz qaysi joyda qanday kiyimni kiyish kerakligi, o'zining boy basdiga nima yarashishini oylamaydilar ham. {3} Yoshlarimiz kiygan kiyimlari ularning muomalasi, yurish turishi, hatti harakatlari, o'zini tutishi, ogizlaridan chiqayotgan sozlariga ham tasir etmay qolmaydi. Afsuski, buning mohiyatini tushunmagan bazi ota-onalar esa farzandlariga kiyinish madaniyatidan ogit berish orniga aynan ularning ozlari farzandlariga qaysidir ma'noda yaxshi o'rnak" bo'lishyapti. Ana shunday ota-onalarning o'zlariga avvalo tarbiya, milliy ma'naviyatimiz va madaniyatimizni singdirsakkina, yoshlarning tarbiyasida ommaviy madaniyatning o'rnini sifat va miqdor jihatdan susaytira olishimiz mumkin bo'ladi. Zero, "Qush uyasida ko'rganini qiladi!" {4}

Xulosa

Men xulosa qilib shuni ayta olishim mumkinki, bugungi murakkab va dolzarb, zamonamizda to'g'ri yo'ldan yurib, to'g'ri qarorlarni qabul qila olib yashay olishimizning o'zi katta bir BAXT. Chunki hozirgi zamonda inson o'zini har qanday illatlardan asrashi, nafaqat o'zini, balki, yosh avlodni ham benuqson ulg'ayishiga

ko`maklashishi bugungi kun insoniyatning tegi yo`q bo`lgan javohirlaridan biridir. Shuningdek, chetdan kirib keladigan har qanday illatni ham "madaniyat ekan" deb qabul qilaverish butun jamiyatni jar yoqasiga olib kelishi bilan birga, uni halokatga uchratishi turgan gap. Chunki o`zga davlatni madaniyatini to`laqonli qabul qildimi, bo`ldi uni o`zining madaniyati o`ldi degani, yoki unutildi. Shuning uchun ham bugungi davr, zamon insoniyatdan so`raladigan narsa" ogohlik va fikrlab ish ko`rishdir"!

Shunga asoslanib, rus olimi V.G. Fedotovning sozlari bilan ommaviy madaniyat "ildizsiz shaxslar"ni tashkil etishini ifodalash mumkin. U "Ommaviy axborot vositalari yordamida "ildizsiz" shaxslar massasi paydo boladi va buning natijasida jamiyat anomiya holatiga (urf-odat va intizom yoqoladi)"degan xulosaga keladi. Agar jamiyatda intizom yoqolsa, qadriyatlar va axloq yo`qoladi. Binobarin, agar axloq yoqolsa, jamiyatda ma`naviy qashshoqlar massasi paydo boladi. Bu esa "Ommaviy madaniyat" ning asosiy maqsadidir. Yuqoridagi fikr-mulohazalarni hisobga olsak, yillar davomida ommaviy madaniyatning asosini ijobiydan kora koproq salbiy xususiyatlar tashkil eta boshlaganini anglab yetishimiz mumkin. Agar ilgari xalq, milliy mentalitetga moslashish, ijtimoiy yaqinlashuv kuzatilgan bolsa, keyingi jarayonlarda buning aksi kuzatilmoqda. Shunday ekan, hozirgi paytda yoshlarimizning manaviy immunitetini yuksaltirishga, manaviy tahdidga qarshi kurashishga qodir milliy manaviyat markazlarini yaratish zarurati kuchli namayon bolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat –yengilmas kuch.–T. : Ma`naviyat, 2008.118-b.
2. Gaybullayev O.M. Milliy goya tarixi va nazariyasi. –T: "Fan va texnologiya",
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ommaviy_madaniyat
4. Ibrohimov.A.Axborotlashgan jamiyatda inson begonalashuvining falsafiy tahlili .Magstrlik dis:2018-yil.11-bet;
5. Yelizarova.N.Zamonaviy media.darslik.65-bet.
6. Jumaqozievich, Yuldashev Utkir. "Systematic approach in education as a methodological problem. " INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 269-271.
7. Yuldoshev, Utkir, and Uktamjon Zhumankuziev. "Determination of the leading pedagogical laws and fundamental principles of the formation of the information culture of school-age children." Society and Innovation 2: 68-76.